



SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF CONTEMPORARY SOCIAL PROTECTION MODELS

Gulom Kholmurodov

Lecturer

Mirzo Ulug'bek National University of Uzbekistan

xolmurodov6994@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: social protection, social protection model, universal (Scandinavian) model, Bismarckian (continental) model, liberal (Anglo—Saxon) model, mixed model, New Uzbekistan, state, social insurance.

Received: 20.05.26

Accepted: 21.05.26

Published: 22.05.26

Abstract: This article provides a sociological analysis of contemporary social protection models – universal (Scandinavian), Bismarckian (continental), liberal (Anglo—Saxon), and mixed (Southern European and post—socialist). The study examines the formation history of each model, their main characteristics, advantages and limitations, as well as their role in ensuring social stability. In addition, recommendations are provided for the further development and enhancement of the social protection system in the New Uzbekistan.

ZAMONAVIY IJTIMOY HIMOYA MODELLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI

G'ulom Xolmurodov

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy Universiteti katta o'qituvchisi

xolmurodov6994@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, ijtimoiy himoya modeli, universal (skandinav) model, Bismarkcha (kontinental) model, liberal (anglo—sakson) model, aralash model, Yangi O'zbekiston, davlat, ijtimoiy sug'urta.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ijtimoiy himoya modellari – universal (skandinav), Bismarkcha (kontinental), liberal (anglo—sakson) va aralash (janubiy Yevropa va postsotsialistik) sotsiologik nuqtayi nazardan tahlil qilinib, har bir modelning shakllanish tarixi, asosiy xususiyatlari, afzallik va cheklavlari

o'rganilib, ularning samaradorligi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli, shuningdek, Yangi O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimini yanada rivojlantirish va kengaytirish bo'yicha takliflar ham berilgan.

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ МОДЕЛЕЙ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ

Гулом Холмуродов

Старший преподаватель

Национального университета Узбекистана

имени Мирзо Улугбека

xolmurodov6994@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: социальная защита, модель социальной защиты, универсальная (скандинавская) модель, бисмарковская (континентальная) модель, либеральная (англосаксонская) модель, смешанная модель, Новый Узбекистан, государство, социальное страхование.

Аннотация: В данной статье с точки зрения социологической анализируются современные модели социальной защиты – универсальная (скандинавская), бисмарковская (континентальная), либеральная (англосаксонская) и смешанная (южноевропейская и постсоциалистическая). Исследуются история формирования каждой модели, их основные характеристики, преимущества и ограничения, а также роль этих моделей в обеспечении социальной устойчивости. Кроме того, представлены предложения по дальнейшему развитию и совершенствованию системы социальной защиты в Новом Узбекистане.

Kirish. Bugungi kunda aholini ijtimoiy himoya qilish masalasi har bir davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ijtimoiy himoya tizimi jamiyatda nafaqat aholining munosib turmush darajasini ta'minlash, balki ijtimoiy xavf-xatarlarga duch kelgan yoki duch kelish ehtimoli yuqori bo'lgan qatlamlarni qo'llab-quvvatlash orqali ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta'minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, aholining qarishi, migratsiya oqimlarining faollashuvi, mehnat bozori strukturaviy transformatsiyasi hamda raqamli texnologiyalar rivoji ijtimoiy xavflarning shakli va ko'lamini sezilarli darajada o'zgartirmoqda.

Shuningdek, oilaviy munosabatlar tizimidagi o'zgarishlar, moslashuvchan va noan'anaviy bandlik shakllarining kengayishi hamda ijtimoiy tabaqalanish jarayonlarining chuqurlashuvi aholining ayrim qatlamlari, xususan, yoshlar, ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar, keksalar va kam ta'minlangan oilalarning ijtimoiy himoyaga bo'lgan ehtiyojini yanada oshirmoqda. Mazkur omillar an'anaviy ijtimoiy himoya modellarining samaradorligini qayta ko'rib chiqish va ularni zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda [1].

Ushbu jarayonlarni sotsiologik nuqtai nazardan o'rganish, ijtimoiy himoya tizimi jamiyatdagi turli ijtimoiy munosabatlar, rollar, qadriyatlar va institutlar bilan qanday bog'langanini, shuningdek uning nafaqat iqtisodiy, balki madaniy, ijtimoiy va institutsional tomonlarini ham bir vaqtning o'zida tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada zamonaviy ijtimoiy himoya modellarini sotsiologik tahlili qilishda sifatli va qiyosiy usullardan foydalanildi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda institutsional va sotsiologik yondashuvlar tahlil qilinib, ijtimoiy himoya modellarining shakllanish jarayoni va ularning samaradorligi baholandi.

Tahlil va natijalar. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yaratish va uni amaliyotga tatbiq etishda ijtimoiy himoya modeli asosiy tushunchalardan biri sifatida qo'llaniladi. Ijtimoiy himoya modeli aholi uchun ko'rsatiladigan yordamlarni tizimli tarzda tartibga soladi va mavjud institutsional mexanizm hamda tashkiliy tuzilmalarning samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, davlatning ijtimoiy siyosatining tuzilishini, resurslar taqsimotini, ijtimoiy xizmatlar va yordamlarning qamrov darajasini hamda ularning samaradorligini kompleks baholash imkonini yaratadi. Bundan tashqari, ijtimoiy himoya modeli davlatlarning strategik va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida, shuningdek, xavf ostidagi guruhlar va ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim rol o'ynaydi.

Boshqacha aytganda, ijtimoiy himoya modeli jamiyatdagi aholi qatlamlariga ko'rsatiladigan yordamning tuzilishini, moliyalashtirish manbalarini, qamrov darajasini, xizmatlarning turli shakllarini hamda ularning samaradorligini tizimli tarzda aniqlash imkonini yaratadi.

Ijtimoiy himoya tizimlarini tahlil qilishda eng keng tarqalgan yondashuvlardan biri daniyalik sotsiolog Gosta Esping-Andersen tomonidan ilgari surilgan "Farovonlik kapitalizmining uch dunyosi" konsepsiyasidir [2].

G. Esping-Andersen tomonidan ishlab chiqilgan "Farovonlik kapitalizmining uch dunyosi"da aholini ijtimoiy himoya qilish tizimlari uch asosiy modelga ajratiladi. Ushbu modellar davlat, bozor va oila institutlarining ijtimoiy xavflarni qoplashdagi o'zaro nisbatiga hamda ijtimoiy huquqlarning taqsimlanish darajasiga ko'ra farqlanadi.

Birinchi tur – universal (skandinav) farovonlik modeli fuqarolarning ijtimoiy huquqlarni universalligi va tengligi tamoyillariga asoslanib, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini shaxsning mehnat faoliyati yoki daromad darajasidan qat'iy nazar har shaxsning ijtimoiy maqomi orqali amalga oshiriladi. Mazkur model doirasida ta'lim, sog'liqni saqlash, pensiya va nafaqa tizimi, shuningdek, bolalar va oilalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy xizmatlar aholining barcha qatlamlari uchun teng asosda, keng qamrovli va institutsional jihatdan barqaror tarzda taqdim etiladi.

Universal (skandinav) farovonlik modelida davlat ijtimoiy siyosatning yetakchi subyekti sifatida faoliyat yuritib, daromad va imkoniyatlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish, ijtimoiy xavf-xatarlarni kollektiv javobgarlik asosida qoplash hamda ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta'minlashga yo'naltiriladi. Mazkur model yuqori soliq yuklamasi, progressiv soliqqa tortish mexanizmi va samarali qayta taqsimlash vositalari orqali moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlanadi, natijada ijtimoiy xizmatlarning yuqori sifati ta'minlanib, aholining ulardan keng va teng foydalanish imkoniyati yaratiladi hamda turli ijtimoiy qatlamlar uchun barqaror huquqiy kafolatlari shakllanadi.

Bundan kelib chiqadiki, universal (skandinav) farovonlik modeli jamiyatning barcha ijtimoiy qatlamlari uchun barqaror ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish, daromad va imkoniyatlar o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirish hamda ijtimoiy xavf-xatarlarni jamoaviy javobgarlik asosida bartaraf etishda samarali mexanizm hisoblanadi.

Mazkur model XX asr o'rtalarida sanoatlashuv, urbanizatsiya va ijtimoiy tenglikka bo'lgan ehtiyojning ortishi natijasida shakllanib, Shvetsiya, Daniya, Norvegiya va Finlyandiya tajribasida o'zining eng samarali ko'rinishini topdi. Ushbu davlatlarda ijtimoiy siyosat nafaqat ijtimoiy himoya vositasi, balki iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida ham qaralib, u inson kapitalini rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Bundan tashqari, mazkur model doirasida davlat va jamiyat o'rtasida yuqori darajadagi ishonch shakllangan bo'lib, bu esa soliq tizimining samarali ishlashini, ijtimoiy dasturlarning izchil amalga oshirilishini hamda fuqarolarning ijtimoiy himoya tizimiga faol jalb etilishini ta'minlaydi. Natijada, ushbu mamlakatlarda ijtimoiy tenglik va farovonlik darajasi yuqori bo'lib, kambag'allik va ijtimoiy tabaqalanish darajasi nisbatan past darajada saqlanadi [3].

Mazkur yondashuvdan farqli ravishda, ikkinchi tur – Bismarkcha (kontinental) farovonlik modeli ijtimoiy himoyani asosan mehnat munosabatlari va majburiy sug'urta mexanizmlari orqali tashkil etishga tayanadi. Bu tizimda ta'minot hajmi fuqarolarning ish faoliyati davomiyligi,

to'langan sug'urta badallari hamda iqtisodiy faolligiga bog'liq holda belgilanadi. Shu boisdan mazkur model universal xususiyatga ega bo'lmay, ko'proq mehnat bilan band bo'lgan shaxslar va ularning oila a'zolariga qaratilgan tabaqalashtirilgan yondashuvni ifodalaydi.

Shuningdek, ushbu modelda asosiy yuk davlat zimmasiga emas, balki ijtimoiy sug'urta institutlari va ish beruvchilar tizimiga tushadi. Bu holat ijtimoiy himoyaning mehnat bozori bilan uzviy integratsiyasini ta'minlab, bandlikni oshirish va fuqarolarning iqtisodiy faoliyatda muntazam ishtirok etishini rag'batlantirishga yo'naltiriladi.

Fikrimizcha, bunday tizim sharoitida shaxsning ijtimoiy huquqlari uning kasbiy maqomi, mehnat bozorida o'rni va sug'urta tizimiga qo'shgan hissasi bilan chambarchas bog'liq tarzda shakllanadi. Natijada ijtimoiy himoya mexanizmi kasbiy faoliyatga asoslangan, qatlamlar kesimida farqlanuvchi tizim sifatida namoyon bo'ladi, bunda davlatning ishtiroki ko'proq tartibga solish va kafolatlash bilan chegaralanadi.

Mazkur yondashuv doirasida ijtimoiy himoya tizimi kasallik, mehnatga layoqatsizlik, nogironlik, keksalik hamda ishsizlik kabi asosiy ijtimoiy xatarlarni qoplashga qaratilgan bo'lib, bu jarayon mustahkam huquqiy baza va barqaror moliyaviy instrumentlar orqali ta'minlanadi. Davlat esa bu yerda tizimning uzluksiz ishlashini ta'minlovchi, nazorat qiluvchi va majburiyatlarning bajarilishini kafolatlovchi muhim institut sifatida faoliyat yuritadi.

Mazkur modelning shakllanishi XIX asr oxiriga borib taqaladi va u dastlab Otto von Bismark tomonidan Germaniyada joriy etilgan ijtimoiy sug'urta tizimi asosida vujudga keldi. Aynan sanoatlashuv jarayonining jadallashuvi, ishchilar sinfining kengayishi va ijtimoiy xavflarning ortishi davlatni yangi turdagi ijtimoiy himoya mexanizmlarini ishlab chiqishga undagan. Otto von Bismark tomonidan kiritilgan pensiya, kasallik va baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish tizimi keyinchalik Yevropaning boshqa davlatlari uchun ham namuna sifatida shakllanishiga asos yaratdi [1].

Shu tariqa, Bismarkcha model vaqt o'tishi bilan Fransiya, Avstriya, Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg kabi G'arbiy va Markaziy Yevropa mamlakatlarida keng rivojlanib, hozirgi kunda ham ijtimoiy himoya tizimining muhim modellari sifatida amal qo'llanilib kelmoqda.

Mazkur modellar tizimidan farqli ravishda, uchinchi tur – liberal (anglo–sakson) farovonlik modeli bozor mexanizmlariga ustuvor ahamiyat berishi bilan tavsiflanadi hamda davlatning ijtimoiy siyosatdagi ishtirokini va ijtimoiy xarajatlarini nisbatan cheklashga intiladi. Bundan kelib chiqadiki, ushbu model doirasida ijtimoiy himoya tizimi universal xarakter kasb etmaydi, balki ijtimoiy yordam asosan daromad darajasi past bo'lgan, ehtiyojmand va ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlarga manzilli (selektiv) asosda yo'naltiriladi.

Shuningdek, liberal (anglo–sakson) farovonlik modelida ijtimoiy huquqlar ko‘proq individual mas‘uliyat, shaxsiy tashabbus va bozor munosabatlaridagi ishtirok bilan belgilanadi. Davlatning roli esa minimal darajadagi kafolatlarni ta‘minlash ya‘ni ijtimoiy himoyaning eng zarur chegarasini belgilash va uni saqlab turish bilan cheklanadi. Shu bilan birga, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, pensiya tizimi va boshqa ijtimoiy xizmatlarning muhim qismi xususiy sektor orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda raqobat, tanlov erkinligi va iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari xizmatlar sifatini oshirishning asosiy vositalari sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada, mazkur modelda ijtimoiy himoya tizimi davlatdan ko‘ra ko‘proq bozor institutlari va oilaviy qo‘llab–quvvatlash tizimiga tayanadi. Bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshirish, byudjet yuklamasini kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlash imkonini beradi, biroq ayrim hollarda ijtimoiy tengsizlikning ortishiga ham sabab bo‘lishi mumkin.

Ushbu model XX asr boshlarida klassik liberal iqtisodiy g‘oyalar, bozor erkinligi va davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash tamoyillari asosida shakllanib, keyinchalik ayniqsa 1980–yillarda neoliberal siyosat ta‘sirida yanada rivojlandi. Xususan, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiya kabi davlatlarda ushbu model amaliy jihatdan keng qo‘llanilib, farovonlik davlati ijtimoiy munosabatlarni qo‘llab–quvvatlovchi, biroq ijtimoiy xarajatlarni iqtisodiy samaradorlik va resurslarni optimal taqsimlash mezonlari asosida tartibga soluvchi institutsional mexanizm sifatida vujudga keldi.

Bundan kelib chiqadiki, mazkur liberal (anglo–sakson) farovonlik modelida mehnat bozorining moslashuvchanligini saqlash, davlatga qaramlik darajasini minimal darajaga tushirish hamda individual tashabbus va shaxsiy mas‘uliyatni kuchaytirishga yo‘naltirilgan. Shu orqali fuqarolarning iqtisodiy faolligi rag‘batlantirilib, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi bozor mexanizmlari bilan uyg‘unlikda ta‘minlanadi.

Ayni paytda, ushbu yondashuvda ijtimoiy yordam universal tusga ega emas, balki asosan ehtiyojmand va ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlarga manzilli tarzda yo‘naltiriladi. Ta‘lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy xizmatlarning sezilarli qismi xususiy sektor tomonidan taqdim etilib, xizmatlar sifati va samaradorligi raqobat muhiti orqali oshiriladi. Shu jihatdan, liberal model ijtimoiy himoyani davlat, bozor va oilaviy institutlar o‘rtasidagi muvozanat asosida tashkil etishga intiladi, biroq ayrim holatlarda ijtimoiy tengsizlikning kuchayish xavfini ham yuzaga keltirishi mumkin.

Bundan tashqari, Janubiy Yevropa va postsotsialistik mamlakatlarda ijtimoiy himoya tizimi ko‘pincha aralash modellarga asoslanadi. Aralash model — bu universal (fuqarolikka asoslangan) va selektiv (manzilli) yondashuvlarni uyg‘unlashtirishga intiladigan tizim bo‘lib, u orqali ijtimoiy

xizmatlar va yordamning bir qismi barcha fuqarolar uchun taqdim etilsa, boshqa qismi aynan ehtiyojmand va ijtimoiy jihatdan zaif guruhlar uchun manzilli tarzda beriladi. Shu bilan davlat barcha fuqarolar uchun minimal ijtimoiy himoyani ta'minlasa, ayni paytda eng zaif qatlamlar alohida qo'llab-quvvatlanadi [4].

Aralash model XX asr o'rtalarida Janubiy Yevropada (Italiya, Ispaniya, Gretsiya, Portugaliya) industrializatsiya va urbanizatsiya jarayonlari ortishi, ijtimoiy tenglikka bo'lgan ehtiyojning kuchayishi natijasida shakllangan bo'lsa, postsotsialistik mamlakatlarda (Polsha, Chexiya Respublikasi, Vengriya, Slovakiya, Estoniya, Litva) 1990–yillarda markazlashgan ijtimoiy tizimdan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida vujudga keldi. Shu bilan birga, ushbu model ijtimoiy himoya tizimini ham universal, ham selektiv elementlarni uyg'unlashtirgan moslashuvchan tizim sifatida tashkil etishga imkon beradi, bunda davlat nafaqat barcha fuqarolar uchun minimal ijtimoiy kafolatlar yaratadi, balki eng zaif qatlamlarni maqsadli tarzda qo'llab-quvvatlaydi.

Nazarimizda, mazkur model universal va manzilli elementlarni uyg'unlashtirish orqali barcha fuqarolar uchun minimal ijtimoiy kafolatlarni ta'minlaydi, balki eng ehtiyojmand va ijtimoiy jihatdan zaif guruhlarini maqsadli tarzda qo'llab-quvvatlaydi. Shu tariqa, aralash model ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi, ijtimoiy xavflarni samarali qoplaydi va jamiyatning turli qatlamlari o'rtasidagi tengsizliklarni kamaytirishga intiladi. Biroq, uning samaradorligi va ijtimoiy himoya tizimining barqarorligi ko'pincha tarixiy sharoitlar, iqtisodiy resurslarning yetarliligi, siyosiy barqarorlik darajasi va institutsional moslashuvchanlik kabi omillarga bog'liq bo'ladi. Shu sababli, bir mamlakatda aralash model yaxshi ishlasa, boshqasida u institutsional nomutanosibliklar, moliyaviy cheklovlar va siyosiy noaniqliklar tufayli kutilgan natijaga yetmasligi mumkin.

Xulosa va takliflar. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining zamonaviy modellari har bir mamlakatning tarixiy, madaniy va ijtimoiy–iqtisodiy sharoitlariga mos holda shakllangan. Har bir model universal, Bismarkcha, liberal yoki aralash o'ziga xos afzallik va cheklovlarga ega bo'lib, jamiyatning turli ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Bugungi globallashtirish va iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida eng samarali yondashuv sifatida aralash model ko'riladi, chunki u universal ijtimoiy kafolatlar bilan bir qatorda, eng zaif va ehtiyojmand qatlamlar uchun manzilli yordamni uyg'unlashtirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, Yangi O'zbekiston tajribasi ham aynan shu yo'nalishda rivojlanmoqda, ijtimoiy himoya tizimini kengaytirish va zamon talablariga moslashtirishga intilmoqda.

Taklif sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini yanada samarali va barqaror qilish maqsadida bir nechta asosiy yo‘nalishlar ustida ish olib borish zarur.

Birinchi, universal va manzilli elementlarni uyg‘unlashtirishni davom ettirish lozim, ya‘ni barcha fuqarolar uchun minimal ijtimoiy kafolatlar saqlanib qolishi bilan birga, eng ehtiyojmand va ijtimoiy jihatdan zaif guruhlar maqsadli tarzda qo‘llab-quvvatlanishi kerak.

Ikkinchi, tizimning moliyaviy va institutsional barqarorligini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi, bu esa ijtimoiy sug‘urta jamg‘armalari, byudjet resurslari va moliyaviy mexanizmlarning samarali ishlashini, shuningdek, ijtimoiy himoya dasturlarining uzluksiz va izchil amalga oshirilishini ta‘minlaydi.

Uchinchi, ijtimoiy xizmatlar sifati va ularning aholiga yetkazilishi samaradorligini oshirish zarur; bu nafaqat xizmatlar turlarining kengaytirilishi, balki ularning sifat standartlari, monitoring tizimi va fuqarolar ehtiyojlariga moslashuvchanligini ham o‘z ichiga oladi.

To‘rtinchi, ijtimoiy himoya tizimining barcha qatlamlar tomonidan adolatli va teng qabul qilinishini ta‘minlash lozim, ya‘ni jamiyatda ijtimoiy inklyuzivlikni mustahkamlash, ayrim guruhlar manfaatlarini inkor etmaslik va resurslarni teng taqsimlashga alohida e‘tibor qaratish zarur.

Ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladigan islohotlar Yangi O‘zbekiston ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirib, aholining turli ijtimoiy xavflardan keng qamrovli himoyasini ta‘minlash bilan birga, me‘yoriy–huquqiy hujjatlar va normativ baza sifatini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Bu esa ijtimoiy dasturlarni izchil amalga oshirish, moliyaviy resurslarni maqbul taqsimlash va davlat hamda fuqarolar o‘rtasida ishonchni oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, tizimning barqarorligi, inklyuzivligi va samaradorligi oshadi, fuqarolarning ijtimoiy himoyaga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanadi va ijtimoiy adolatni ta‘minlashga muhim hissa qo‘shiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aholining turli guruhlari bilan ijtimoiy ish. Darslik. N.M.Latipova, K.K.Inakov, V.S.Alekseeva, G‘.O‘.Xolmurodov. – T.: 2025 – y. – 444 b.
2. The Three Worlds of Welfare Capitalism. Gøsta Esping–Andersen. First published 1990 by Polity Press in association with Blackwell Publishers Ltd. – P. 257.
3. Kholmurodov, G. (2025). Institutional and practical aspects of assessing the social effectiveness of local self-governance councils in the context of singapore’s experience. Prospects for innovative technologies in science and education, 2(10), 7-10.

4.OECD/European Union (2025), Social Economy in Europe: Contributing to Competitiveness and Prosperity, Local Economic and Employment Development (LEED), OECD Publishing, Paris – P. 182.